O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI: INSTITUTSIONAL SHAROITLAR VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Guliston davlat universiteti
Bank ishi yo'nalishi talabasi
Sodiqova Sevinch Rustam qizi
e-mail: sevinchsodikova00@gmail.com
Tel: +998943921125

Annotatsiya: *Mazkur tezis O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini raqamlashtirish jarayonining zamonaviy holati, uni amalga oshirish mexanizmlari hamda institutsional sharoitlarining samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar asosida raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan.*

Tezisda internet qamrovi, elektron hukumat xizmatlari, naqd pulsiz to'lovlar ulushi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari eksporti va raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kabi muhim ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, IT sohasini rivojlantirish bo'yicha yaratilgan institutsional muhit va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, raqamlashtirish jarayoni mamlakatda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani aniqlangan. Tadqiqot xulosalarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari va uning kelgusidagi barqaror o'sishga ta'siri yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

imrconf.com

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot, iqtisodiyotni raqamlashtirish, institutsional sharoitlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli infratuzilma, IT Park, raqamli xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, naqd pulsiz to'lovlar, innovatsiya, elektron hukumat, raqamli infratuzilma, ilg'or tajriba.*

Kirish

Iqtisodiyotni liberallashtirish, globallashuv jarayonlari o'z navbatida hisob va audit tizimining ham xalqaro gormonizatsiyasini va standartlashtirilishini talab etmoqda. Mazkur vazifani hal etish boshqaruvning muhim elementlari bo'lgan hisob, iqtisodiy tahlil va auditning ham nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini yagona tartiblarini belgilashni, ularni unifikatsiyalashni, muqobillikdagi tartiblarni yagona mezonlarga keltirishni taqozo qilmoqda.

Ushbu muammolarga chora sifatida moliyaviy tahlil ko'nikmasini olsak mubolag'a bo'lmaydi. Moliyaviy tahlil investitsiyalar va kreditlarga doir qarorlarni qabul qilishga; subyektning bo'lg'usi pul oqimlariga; ularga ishonib topshirilgan resurslarga, majburiyatlarga; rahbar organlarining ishiga baho berishda biznes samaradorligi va boshqaruvning sifat menejmentiga erishishda muhim dastak vazifasini bajaradi.

XXI asr – dunyo iqtisodiyotining yangicha shakllanish asridir. Bu dunyo insoniyatni, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotning o'zgarishini, iqtisodiy modellar transformatsiyasini, xalqaro munosabatlarni, globallashu va yangi geiqtisodiy qurilishini shakllanishini anglatadi Bugungi iqtisodiyot aybni o'zgalardan ax taradigan, muammolar yechimiga osongina kelinadigan, hammaning boshini bir xilda silaydigan, istagncha mol-mulkka ega bolishda ilmni,bilimni talab qilmaydigan, o'zgarish va rivojlanishda cheksiz imkoniyatlarni ochib beruvchi, tahlikalardan holi bo'lgan iqtisodiyot emasligini tan olish kerak.


imrconf.com

imrconf.com

Zamonaviy boshqaruvni:[1]

- yaqin va uzoq davriylikni qamrab olgan – rejalashtrish;
- mulk egalari va maqsadli foydalanuvchilarni moliyaviy va boshqa axborotlar bilan ta’minlovchi – buxgalteriya hisobi;
- iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash orqali tezkor, joriy va axborotlarni chuqur qayta ishlash, faoliyatga obyektiv baho berish, istiqboldagi boshqaruv strategiyasini belgilab beruvchi - iqtisodiy tahlil;
- yechimlari va natijaviyligini ta’minlovchi, innovatsion va aqlli iqtisodni faoliyatni yo’lga qo’yish va magsadli boshqarishning aniq ta’minlashga imkon beruvchi - ilmiy faoliyat;
- faoliyat samaradorligi va natijaviyligidan kelib chiqqan holda munosabatlarni muvofiqlashtirishning muhim mezoni bo’lgan - mehnatni munosib rag’batlantirish;
- va boshqa (ijtimoiy, ekologik, texnikaviy, tashkiliy) jihatlarni qamrab olgan - murakkab tizim deb qarash lozim.

1-chizma



[1] K. R. Subramanyam Financial statement analysis, Eleventh edition.Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright 2014 by, 2-bet

Raqamlashish indeksi (Digitalization Index) - bu indeks O‘zbekiston iqtisodiyotidagi raqamlashtirish darajasini ko’rsatadi. U davlat va xususiy sektorning elektron xizmatlari, onlayn hisob-kitoblar, raqamli infratuzilma va elektron hukumat xizmatlarini qamrab oladi.

Elektron to’lovlar va tranzaksiyalar - bu ko’rsatkich raqamli iqtisodiyot samaradorligini o‘lchaydi. U banklar va to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilgan elektron to ‘lovlar va tranzaksiyalar hajmini bildiradi.

Raqamli ish o‘rinlari - raqamli iqtisodiyot sohasida yaratilgan yangi ish o’rinlarini ko‘rsatadi (IT, fintech, elektron xizmatlar va raqamli platformalarda ish o’rinlari). Xo’jalik yurituvchi subyektlari oldida turgan muhim vazifalarni hal etilishiga albatta axborotlar oqimi va ularni tahliliy xulosalariga tayangan zamonaviy boshqaruvni yo’lga qo’yish va takomillashtirish orqaligina erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ–286-son, 16.09.2025)

Ushbu qaror “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq mamlakatda raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish, davlat boshqaruvi hamda iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirishni tezlashtirish maqsadida qabul qilingan hujjatdir.

Qarorning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari: “Raqamli hukumat” tizimini yanada rivojlantirish: 2025–2026 yillar uchun 41 ta ustuvor raqamli loyiha ishga tushiriladi; Elektron davlat xizmatlari ulushi 70% gacha yetkaziladi; Mahallalarda 30 dan ortiq davlat xizmatlari raqamlashtiriladi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini mustahkamlash: Hududlarda optik tolali aloqa liniyalari qurilishi (66 ming km); 2 284 ta yangi tayanch stansiya barpo etilishi rejalashtirilgan.

Axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha islohotlar: 100 dan ortiq elektron tizimlar dasturlari joriy etiladi; Yagona raqamli platforma – “OASIS”

imrconf.com

(O‘zbekiston axborot tizimlari integratsion servisi) ishlab chiqiladi; IT va startaplarni qo‘llab-quvvatlash:

IT Park rezidentlari uchun Raqamli ma’lumotlar platformasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi; Xorijdagi konsulliklar orqali IT Park rezidentlari mutaxassislari uchun masofadan bank hisobvaraqlari ochish huquqi beriladi.

(1-jadval)

O’zbekiston Respublikasi, 2024 holati va 2029 prognozi

№	Ko’rsatkichlar	2024-yil (real)	2029-yil prognoz	Izoh
1.	Internet qamrovi (aholi ulushi)	85%	92%	To’yinganlik sabab sekin o’sish
2.	Davlat xizmtlarining raqamlashtirilgan ulushi	78%	90%	Aksariyat xizmatlar toliq onlaym
3.	Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi	2.1%	3.5%	IT va fintech hissasi oshadi.
4.	AKT xizmatlari eksporti	350mln$	700mln$	2 baravar o’sish kutiladi
5.	IT Park rezidentlari soni	10 500 ta	18000 ta	Startap va outsourcing kengayadi
6.	Naqd pulsiz to’lovlar ulushi	68%	82%	Mobil banking va QR to’lovlar
7.	Elektron hukumat xizmatlari	600 ta	900 ta	Integratsiya va super-servislar

imrconf.com

Jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, Internet qamrovi (aholi ulushi) - 2024 yilda internet qamrovi 85% ni tashkil etib, mamlakatda raqamli infratuzilmaning asosiy qismi shakllanganini ko’rsatadi. Bu ko’rsatkich shahar hududlarida yuqori, qishloq joylarda esa nisbatan pastroq. 2029 yilga kelib 92% ga yetishi prognoz qilinmoqda. O’sish sur’atining sekinlashishi tabiiy holat bo’lib, bu bozorning to’yinganlik bosqichiga yaqinlashayotganini bildiradi. Biroq qolgan 7% qamrovni ta’minlash eng murakkab va xarajatli bosqich hisoblanadi. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilgan ulushi - 2024 yilda davlat xizmatlarining 78% i elektron shaklga o’tkazilgan. Bu davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya faol olib borilayotganini anglatadi.

Prognozlarga ko’ra, 2029 yilga kelib ushbu ko’rsatkich 90% ga yetadi. Bu natija byurokratik jarayonlarning qisqarishi, shaffoflikning oshishi va aholining davlat xizmatlariga bo’lgan ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi - 2024 yilda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 2,1% bo’lib, bu ko’rsatkich hali nisbatan past hisoblanadi. Shu bilan birga, bu holat katta o’sish salohiyati mavjudligini ko’rsatadi. 2029 yilga kelib ushbu ulush 3,5% ga yetishi kutilmoqda. O’sish asosan IT xizmatlar, fintech, elektron tijorat va raqamli platformalar hisobiga ta’minlanadi. AKT xizmatlari eksporti - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari eksporti 2024 yilda 350 mln AQSh dollari atrofida shakllangan. Bu ko’rsatkich mamlakatda IT-outsourcing va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish rivojlanayotganini bildiradi. 2029 yilga kelib eksport hajmi 700 mln dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Ya’ni, besh yil ichida deyarli ikki barobar o’sish kutilmoqda, bu raqamli iqtisodiyotning eng muhim drayverlaridan biri hisoblanadi.

IT Park rezidentlari soni - 2024 yilda IT Park rezidentlari soni 10 500 taga yetgan. Bu startaplar, outsourcing kompaniyalari va texnologik bizneslarning faol rivojlanayotganidan dalolat beradi. 2029 yilga borib rezidentlar soni 18 000 taga yetishi kutilmoqda. Ushbu o’sish yangi ish o’rinlari

imrconf.com

yaratish, yoshlar bandligini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o’ynaydi. Naqd pulsiz to’lovlar ulushi - 2024 yilda naqd pulsiz to’lovlar ulushi 68 % ni tashkil etgan. Bu bank tizimi, mobil ilovalar va elektron to’lov platformalarining keng ommalashganini ko’rsatadi. 2029 yilga kelib bu ko’rsatkich 82 % ga yetishi prognoz qilinmoqda.

Natijada iqtisodiyotda pul aylanishi tezlashadi, yashirin iqtisodiyot qisqaradi va moliyaviy intizom mustahkamlanadi. Elektron hukumat xizmatlari soni - 2024 yilda elektron hukumat orqali taqdim etilayotgan xizmatlar soni 600 taga yaqin. Bu aholining davlat bilan o’zaro munosabatlarini sezilarli darajada soddalashtirgan. 2029 yilga kelib ushbu xizmatlar soni 900 taga yetishi kutilmoqda. Bu nafaqat xizmatlar sonining ko’payishini, balki ularning integratsiyalashuvi va “bir darcha” tamoyili asosida ishlashini ham anglatadi.

Xulosa

Umuman olganda, O’zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish bo’yicha yaratilgan institutsional sharoitlar va amalga oshirilayotgan mexanizmlar o’zining dastlabki samaradorligini namoyon etmoqda. Kelgusida raqamli kadrlar tayyorlash, hududlar o’rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish va innovatsion biznesni qo’llab-quvvatlash orqali raqamli iqtisodiyot mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishida muhim strategik omilga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. OECD. Digital Economy Outlook. Paris: OECD Publishing.
2. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. Washington, DC.
3. European Union. Digital Economy and Society Index (DESI) Reports. Brussels.
4. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016.

imrconf.com

5. stat.uz (O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi).

6. undp.org (Raqamli iqtisodiyot, institutsional rivojlanish bo’yicha tahlillar).

7. it-park.uz

imrconf.com